



CONCEPT OF METHODS AND TECHNIQUES OF TEACHING CHEMISTRY

Avezova Nafosat Omonovna ¹

¹ Chemistry teacher of the secondary school

No 25 of Bagat district of Khorezm region

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4748615>

ARTICLE INFO

Received: 1st May 2021

Accepted: 5th May 2021

Online: 10th May 2021

KEY WORDS

teaching method, dogmatic method of teaching, illustrative method of teaching, heuristic method of teaching

ABSTRACT

This article provides information on the definition of methods and tasks of teaching chemistry, determining their place of application, general methods, dogmatic method, illustrative method, heuristic methods.

KIMYO FANINI O'QITISHNING METODLARI VA USLUBLARI HAQIDA TUSHUNCHA

Avezova Nafosat Omonovna ¹

¹ Xorazm viloyati Bog'ot tumani 25-son umumiy o'rta ta'lim maktabining

kimyo fani o'qituvchisi

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 1-May 2021

Ma'qullandi: 5-May 2021

Chop etildi: 10-May 2021

KALIT SO'ZLAR

o'qitish metodi, o'qitishning dogmatik metodi, o'qitishning ilyustrativ metodi, o'qitishning evristik metodi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Kimyo o'qitishning metodlari va vazifalarini aniqlash, ular qo'llaniladigan o'rnini belgilash, umumiy metodlar, dogmatik metod, ilyustrativ metod, evristik metodlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kimyo o'qitishning metodlari, shakllari, manbalari o'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etish, kimyo o'qitish nazariyasining eng muhim bo'limlari sanaladi.

O'qitish metodi falsafiy nuqtai - nazardan ta'lim jarayonida ta'lim mazmunini harakatlantirish shakli bo'lib hisoblanadi. Agar predmetning mazmuni fanning didaktik ekvivalenti bo'lib hisoblansa, o'qitish

metodlari o'rganilayotgan fan yoki bilish lozim bo'lgan narsalar metodlarining didaktik ekvivalentidir. Didaktikada fanni o'rganish metodlari va o'qitish metodlari mavjud.

O'qituvchining asosiy vazifasi o'quvchilarga ta'lim, tarbiya beruvchi ularni rivojlantiruvchi metodlarni optimal tanlashdan iborat.



O'qitish metodi - o'qituvchi rahnamoligida o'quvchilarning maqsadga qaratilgan birgalikdagi faoliyati bo'lib hisoblanadi. Kimyo o'qitish metodikasining o'ziga xos alohida xususiyatlari mavjud: ular;

1. Kimyo o'qitish mazmuni va metodikasi amaliyotga asoslangan nazariy fan.

2. O'quvchilarning bilish faoliyati tafakkur qirralarini o'stirishga qaratilgan bo'lib, moddaning aniq xossasi o'zgarishi, holati, xossalari, tuzilishi, tarkibi kabilar fikr yuritishga o'quvchilarni o'ylashga olib keladi. Har bir metod ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi funksiyalarni qaerda samarali amalga oshirsa o'sha yerda o'sha jarayonda qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Metodlar o'zining qo'llanilishi bilan ham o'quvchilarni tarbiyalaydi.

Shu sababli o'qituvchi har bir metodni tanlaganda uchala funksiyani samarali amalga oshirishiga e'tibor berishi kerak.

Metodlarni optimal tanlash muammolari mavjud. Unda quyidagilarga e'tibor berish kerak.

1) O'qitishning qonuniyatlari va prinsiplari.

2) O'qitishning maqsad va vazifalari.

3) Shu fan mazmunining hamda o'rganilayotgan mavzuning mazmun va uzviy mosligi.

4) Maktab o'quvchilarning o'qish imkoniyatlari. (yoshi, tayyorgarlik darajasi, sinf jamoasining xususiyatlari).

5) Tashqi sharoitning o'ziga xosligi.

6) O'qituvchining o'z imkoniyatlari.

O'qitish metodlarining tuzilishi har xil bo'lib, ular ma'lum jarayonning takomillashuvi bilan to'xtovsiz ravishda o'sib boradi. Bu o'sish jamiyatda madaniyat darajasini o'sishiga bog'liq. Shu sababli o'qitish metodlarini tartibga solish va klassifikasiyalash zarurati kelib chiqadi. Maktablarda bilim asoslarini berish lozim. Mustaqil O'zbekistonimiz maktabi

tarbiyalovchi ta'limni amalga oshiradi. Bu maktab beradigan ta'limning tarbiyalovchi xususiyati shundan iboratki, u o'quvchilar dalialiktik-materialistik dunyoqarash asoslari hosil qiluvchi chinakam ilmiy bilimlar beradi. Bizning maktabimizda ta'lim berishning talabalarda aktivlik, tashabbus, mustaqil fikrlash, qo'yilgan maqsadga intilish, o'z bo'rchini his etish, boshqa metod va usullari tarbiya jihatidan katta rol o'ynaydi.

Kimyo o'qitishning metodlari turli usullarda olib boriladi. **Metod – bu «yo'l» demakdir. U dogmatik, illyustrativ, evristik** bo'lishi mumkin.

O'qitishning dogmatik metodi- o'qituvchining materialni og'zaki, ko'rsazma vositalardan foydalanmay, dalil isbotsiz va faqat talabalarni bu materialni takrorlashga va yod olishgagina jalb etish bilan bayon qilishdan iborat.

O'qitishning illyustrativ metodi- o'qituvchi o'quvchiga tayyor bilimlarni tushuntirib, har xil xususiy metodlarni qo'llaydi. Ular: o'qituvchining tushuntirishi, darslik bilan ishlash, magnitafon va hokozolar bilan ishlash. Bunday ko'rgazmalar eksperiment, modellar, ekran qo'llanmalari tablisalardan foydalaniladi.

O'qituvchi laboratoriya tajribalarini ko'rsatib tushuntirib beradi.

Ilyustrativ metodda o'qituvchi ayrim amaliy mashg'ulotlarni bajarish texnikasi va metodikasini bajarish tartibini qo'llaganda ham foydalanadi. Bu metod o'quvchilarda minimum bilimlar zapasi yig'ilgach kengroq qo'llaniladi. O'quvchilarda amaliy o'quv ko'nikmalarini shakllantirish, tajribalarni bajarib ko'rsatish texnikasini shakllantirishda M: probirkaga eritmani qo'yish, qoshiqchadagi eritmani bo'g'latish kabilarda tushuntirib ko'rsatish amalga oshiriladi.

O'qitishning illyustrativ metodi - kimyo kursining boshlang'ich qismida ko'p qo'llanadi. Bu davrda o'quvchilarda ko'nikma



va malakalar yetarli bo'lmaydi. Shu davrda o'qituvchi tajribalarni o'zi ko'rsatib tushintirib beradi.

Bu metoddan o'quvchilar tajribalarni mustaqil bajarib izohlab berishda ham keng foydalaniladilar.

O'qitishning evristik metodi-

o'quvchilarning o'zlari qiladigan ish asosida tuziladi, talabalar bevosita o'qituvchining faol ishtiroki ostida kashfiyot qiladilar. Bu metodning «evristik» degan nomi «tadqiqot» metodi degan so'zdan kelib chiqqan. Masalan, galogenlar xossalarning chog'ishtirma tavsifi mohiyatini aniqlashda qo'llaniladi.

Bu davrda o'quvchilar galogenlarning xossalarni chog'ishtirib izohlashini o'qituvchi tartibga solib turadi. Masalan, kaliy yodid eritmasiga kraxmal kleystriini qo'ysak rang

sezilmaydi, alohida xlorli suvga kraxmal kleystriini qo'shsak yana rang o'zgarishi sezilmaydi. Uch komponentni birgalikda qo'shib aralashirsak kraxmal ko'k tusga kiradi. Sababini esa talabalar o'zlari izohlab berishlari lozim. Bu qisman izlanuvchanlikdir.

Izlanuvchanlik metodi mustaqil ishlash, mustaqil izlanishning bir turi bo'lib hisoblanadi. O'quvchi nazariy bilimlar to'g'riligini amalda sinab ko'radi. Masalan, eksperimental masalalar yechishda bu metoddan foydalaniladi.

Klassifikasiyalash asosiy xarakterga (nisbiy xarakter) ega. Amaliyotda metodlarning bir nechtasidan bir vaqtda foydalaniladi. Ular o'zaro bog'liqlikka ega. Klassifikasiyada har xil holatlar asosiy belgi sifatida qabul qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *И.А.Каримов. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барарорлик шартлари ва таракқиёт кафолатлари.*Т.: Ўзбекистон, 1997
2. *И.А.Каримов. “Баркамол авлод Ўзбекистон таракқиётининг пойдевори”.* Т. Ўзбекистон, 1997
3. Умумий ўрта таълим давлат таълим стандарти ва ўқув дастури. Тошкент, 1999, 3-сон
4. *И. Н. Борисов. Химия ўқитиш методикаси.* Тошкент, 1958.
5. *З.Азимова. “Кимё дарсларида ўқувчиларга экологик таълим-тарбия бериш”* Т.: 1995.
6. “Халқ таълими журнали” Т.1998-2005 й.
7. *Х.Т.Омонов., М.Н.Мирвохидова. “Кимё ўқитиш методикаси”* маърузалар матни. 2001